

IVSINF ONA TILI FANIDAN “FE’LLARNING SHAXS-SON
QO‘SHIMCHALARI BILAN TUSLANISHI” MAVZUSINI O‘RGATISH
METODIKASI

Davlatova Saida Tojimuxammadovna ¹

¹ Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-8578-4156>

E-pochta: dsaida1974@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:28.06.2025

Revised: 29.06.2025

Accepted:30.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:

shaxs-son
qo‘shimchalari, fe‘l, 4-
sinf, ona tili, interaktiv
usullar, morfologik tahlil,
boshlang‘ich ta’lim, o‘quv
faolligi, metodik
qo‘llanma, grammatik
ko‘nikma.

Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf ona tili darslarida, xususan, IV sinfda “Fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi” mavzusini samarali o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini yoritadi. Unda shaxs-son qo‘shimchalarining mazmun-mohiyati, grammatik vazifasi, turli gap kontekstlarida qo‘llanishi tahlil qilinib, o‘quvchilarda tilga xos tahliliy fikrlash, morfologik tahlil qilish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan interfaol yondashuvlar tavsiya etilgan. Maqolada dars jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, mavzuga oid interfaol topshiriqlar, jadval va diagrammalar, differensial yondashuv asosidagi mashqlar, baholash mezonlari va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi strategiyalar bayon etilgan. Maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogika yo‘nalishidagi talabalari hamda metodistlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

KIRISH. Bola uchun maktabda umuman hayotida eng birinchi ideali o‘qituvchi hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yaxshi bilim olishida ustozning o‘rni beqiyos. Ta’lim jarayonini boshqarish o‘qituvchidan katta mahorat talab

qilinadi. O'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'llarini, bilimni nazorat qilish, ta'lim natijasini tekshirib, maqsadning nechog'li amalga oshirganini aniqlaydi. Ta'lim jarayonida ona tili darslarida murakkabliklarga e'tibor qaratilmas ekan, keyinchalik o'quvchining yozma nutqida, bilimida bo'shliqlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ona tili fanidan ta'lim mazmuni shunday bo'lishi kerakki, o'quvchi dars jarayonida o'ylashga, fikrlashga, taqqoslashga, umumlashtirishga harakat qilsin.

Ona tili fanidan fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishi mavzusini o'rgatishda avval o'quvchilarga fe'l so'z turkumining gapdagi vazifasi, bo'lishli va bo'lishsizligi, so'roqlari haqida to'liq tushuncha berish kerak. O'quvchilarga **yuguramiz, yozamiz, o'ynaymiz, turamiz** so'zlari fe'l ekanini, ularning gapda kesim bo'lib kelayotganini eslatish kerak. (Taqqimot orqali shu so'zlarga oid harakatlar ko'rsatilishi mumkin). O'quvchilarining qo'lga qog'ozda yozilgan so'zlar tarqatiladi. Ular so'zlarni o'qib shu so'zlarda ish harakati bajarilganligi yoki bajarilmaganligini izohlaydilar. Shu tariqa bo'lishli yoki bo'lishsiz fe'l haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

Qo'shimcha topshiriqli diktant.

Bu ish turi mavzuni yaxshiroq tushinishiga yordam beradi. O'quvchilarning e'tibori ekranga qaratiladi. Taqqimotda yozilgan matn o'qitiladi. So'roqlar yordamida fe'l aniqlanadi.

1-gap:

Men kutubxonaga bordim.

Bu gapda fe'l oxiridagi **-im** qo'shimchasi qanday ma'noni anglatadi? (o'quvchilar o'ylanadi)

-Men nechanchi shaxs?

-I shaxs **-im** qo'shimchasi harakatni I shaxs bajarganini anglatadi.

Bu gapdagi men olmoshining o'rniga biz so'zini qo'yib, gapni o'qing. Fe'lda qanday o'zgarish bo'ldi? (Biz kutubxonaga bordik.)

Fe'l oxiridagi **-m** o'rniga **-k** qo'shimchasini qo'ydik. (**-k** qo'shimchasi I shaxs ko'plik qo'shimchasi)

2-gap:

Sen qaysi kitobni o'qiyapsan?

Bu gapdagi harakatni kim bajargan? (II shaxs bajargan)

-san II shaxs birlik qo'shimchasi.

3-gap:

Ular suzishni o'rgandilar.

3-gapdagi u olmoshining ko'pligini qo'yib, gapni o'qing.

- Fe'lga qanday qo'shimcha qo'shiladi?

(-lar qo'shimchasi qo'shilgan)

Shaxs son qo'shimchalari harakatning uch shaxsdan biri tomonidan birlik va ko'plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

O'quvchilarga shaxs-son qo'shimchalari ko'rsatilgan jadval havola qilinadi. Shu paytda o'quvchilar oldida turgan muammoga aniqlik kiritiladi.

Yuqorida fe'llarga qo'shilgan – **m, -man, -ng, -san, -k, -miz, -ngiz, -siz, -di** lar shaxs son qo'shimchalaridir. Ular harakatning I, II va III shaxs tomonidan birlik va ko'plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

Ona tilida qo'shimchalar har doim oldidan chiziqcha bilan yoziladi.

Masalan:

- **siz** qo'shimchasi hamda **siz** kishilik olmoshi. Buni o'quvchilar chiziqcha (-) orqali farqlaydilar. O'qituvchi buni alohida tushuntirib o'tishi kerak bo'ladi.

Shundan so'ng darslikdagi 1-topshiriq bo'yicha berilgan "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Tabiat - bebaho ne'mat" matnida ishtirok etgan fe'llar⁹³ aniqlanadi va jadval asosida fe'llarning tuslanishi tushuntiriladi.

Shaxslar	Sonlar	
	Birlik qo'shimchalari	Ko'plik qo'shimchalari
I shaxs	qaytd im , ishlayap man	qaytd ik , ishlayap miz
II shaxs	qaytd ing , ishlayap san	qaytd ingiz , ishlayap siz
III shaxs	qaytd i , ishlayap ti	qaytd ilar , ishlayap tilar

Jadval orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Darslikdagi 96-mashq.

O'quvchilar gaplarni o'qishadi va so'roqlar yordamida harakatni bildirgan so'zni topadi. (nima qildim? bordim)

- Harakatni kim bajardi? (Kim bordi? – Men bordim. Harakatning egasi **men** so'zi:)
- Harakatni nechanchi shaxs bajargan? (I shaxs)
- **men bordim** so'zlari gapning qanday bo'laklari? (Bosh bo'laklari. Men – egasi, bordim – kesimi.)

⁹³ Ona tili 4-sinf IV qism Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik "Novda Edutainment" Toshkent-2023. 75-bet.

Shu tariqa o'quvchilar harakatni qaysi shaxs bajarayotganini aniqlaydilar, gaplarning o'zaro farqini topib shaxs son qo'shimchalarini tegishlicha belgilaydilar.

Men bordim, sen boryapsan, u bordi kabi.

Darslikdagi 97-mashqni bajarishda o'quvchilar jadval bilan ishlaydilar, ya'ni berilgan fe'llarni namuna asosida tushlash kerak bo'ladi: **chizdi, bo'yadi, keldi, yurdi.**

Fe'llarni I va II shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llab yozadilar.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Yozdim, yozaman, yozay(in)	Yozdik, yozamiz, yozaylik
II shaxs	Yozding, yozasan, yoz(gin)	Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)
III shaxs	Yozdi, yozadi, yozsin	Yozdilar, yozadilar, yozsinlar

Yuqoridagi berilgan tushunchalar asosida 98-mashqni o'quvchilar mustaqil bajaradilar. Mashqning shartida berilgan topshiriq asosida I va II shaxsda berilgan so'zlarni III shaxsda ifodalab davom ettiradilar.

Darsning mustahkamlash qismida test yoki saylanma diktantdan foydalanish mumkin.

1) I shaxs birlikdagi fe'llar berilgan qatorni belgilang.

- A) o'qidik, yozdik, ko'ryapmiz
- B) Ishlayapman, o'qimoqchiman, yozdim
- D) kuldi, ushladi, chizyapti;

2) III shaxs bajargan harakatni bildirgan fe'l qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Men sport musobaqasiga bordim.
- B) Nargiza buvisini ko'rib quvondi.
- D) Siz qachon biznikiga borasiz?

Saylanma diktant

Saylanma diktant o'rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo'llashda yordam berish bilan birga, o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi. Diktantning bu turida o'quvchi matnning yoki gaplarning hammasini yozmay, o'rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so'zlar yoki so'z birikmalarinigina saylab yozadi, shuning uchun ham u saylanma diktant deyiladi⁹⁴.

Saylanma diktantni quyidagicha o'tkazish mumkin: o'qituvchi saylanma diktant uchun mavzuga mos so'zlar, gaplar ko'proq ishtirok etgan matnni tanlaydi. Matn darsdan oldin

⁹⁴ Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA DIKTANTLAR TO'PLAMI. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) TOSHKENT «VEKTOR-PRESS» 2011.

doskaga yoki ko'chma doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra tahlil qilinib, o'rganib chiqilgan mavzu asosida yoziladigan so'zlar aniqlanadi. Shu asosda mavzu qoidasi takrorlanib, mustahkamlanadi. Keyin esa o'quvchilar diqqati ko'chma doskadagi yozuvga jalb qilinadi, bir o'quvchiga o'qitiladi. Shundan so'ng doska parda bilan berkitib qo'yiladi va o'qituvchi bolalarga ta'kidlaydi: — Men doskaga yozilgan gaplarni tartib bilan yana bir marta o'qiyman. Sizlar men o'qigan gaplarni to'liq yozmay, takrorlangan qoidaga muvofiq bo'lgan so'z va so'z birikmalarinigina saylab yozasizlar. Agar matndagi biror gapda shu qoida asosida yoziladigan so'z yoki so'z birikmasi bo'lmasa, bu gapni butunlay yozmaysizlar. O'quvchilar saylanma diktantni yozib bo'lgach, doskadagi matn o'qituvchi rahbarligida o'qitiladi va tekshiriladi: o'qituvchi saylab yozish lozim bo'lgan so'z yoki so'z birikmasining tagiga chizadi, o'quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtirib tekshirib, xatolarini tuzatadilar⁹⁵.

Masalan o'qituvchi saylanma diktant uchun mavzuga mos so'zlar, gaplar ko'proq ishtirok etgan matnni ekranda namoyish qiladi. Bu matndan I, II va III shaxs bajargan harakatni bildirgan fe'llarni topib, tanlab olib yozish aytiladi.

O'quvchilar fe'llarni 3 ta shaxsga ajratib, 3 ustunga yozadilar.

Shunday qilib o'quvchilarning e'tibori ekranda namoyish qilinayotgan taqdimotga qaratiladi.


Saylanma diktant

ko'rdim, yozding, kelmoqchi, chizyapman, o'qidilar, ishlayapmiz, bormoqchisan, qo'yasiz, kuldi, ovladik, ketyapsiz, bordilar.

Topshiriq bajarib bo'lingandan so'ng ekranda topshiriqning to'g'ri yozilgan variantidan o'zlarining ishlarini tekshiradilar yoki o'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar. Har bir guruh 1 tadan har bir shaxsga tegishli bo'lgan so'zlarni ajratib yozadilar va yozganlarini o'qib, tekshiradilar.

Mana shunday usullardan foydalanish o'quvchilarga fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi, harakatni qaysi shaxs tomonidan bajarilganini qo'shimchalar orqali aniqlanishi, shaxs-son qo'shimchasining yozilishi haqida chuqurroq bilim berish, o'quvchilarni fanni yaxshi o'zlashtirishlariga, ularning og'zaki va yozma nutqini yanada o'stirishga yaxshi samara beradi deb o'ylayman. Shaxs-son qo'shimchalarni gapda to'g'ri qo'llashga o'rgatishda **“Mosini toping”** usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan:

⁹⁵ Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA DIKTANTLAR TO'PLAMI. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) TOSHKENT «VEKTOR-PRESS» 2011.



Bugungi kun o'qituvchisi har qanday yangiliklarga intiluvchan bo'lishi o'quvchilarga bor bilimini yuksak darajada yetkaza olishi zarur.

Darsni yuqori saviyada o'tish biz o'qituvchilarning eng asosiy vazifamizdan biridir.

Mazkur mavzu orqali o'quvchilarda nafaqat grammatik bilimlar, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, jadval, taqdimot, test va diktant kabi turli metodik usullarni uyg'unlashtirish dars samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev A.R. Po'lotova Y.A. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2021
2. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova Diktantlar to'plami. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) Toshkent «Vektor-Press» 2011.
3. Ona tili 4-sinf III qism Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik "Novda Edutainment" Toshkent-2023.
4. Ona tili 4-sinf IV qism Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik "Novda Edutainment" Toshkent-2023. 75-bet.
5. Ona tili 4-sinf . O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik "Novda Edutainment" Toshkent-2023. 75-bet.
6. Davlatova, S., & Xodjayeva, M. (2024). 4-sinf ona tili savodxonligi darslarida "Sifat so 'z turkumi" bilan tanishtirishning innovatsion usullari. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 10, 115-118.
7. Oyjamol, r. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholovchi pirls xalqaro tadqiqoti. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 603-605.
8. Tojimuxammadovna, d. S., & qaxramonovich, m. M. (2024). Tashqi va ichki motivatsiyalarning yoshga bog 'liqligi. *University research base*, 168-171.
9. Mirzaliyevna, s. Z., & dilafruz, m. (2024). 2-sinf o'qish darslarida nutq o'stirish yo'llari. *University research base*, 419-422.
10. Mirzaliyevna, s. Z., & mohiraxon, s. (2024). Boshlang 'ich sinf darslarida kalaster metodidan foydalanishning qulay usullari. *University research base*, 437-440.